



STUDYING THE TECHNICAL AND TACTICAL MOVEMENTS OF YOUNG GOALKEEPERS THROUGH TESTS

Abdullaev Islam

Nukus branch of the Uzbek State University of Physical Culture and
Sports Assistant instructor of the Department of "Sports Games"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15533979>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 27th May 2025

Online: 28th May 2025

KEYWORDS

Technical and tactical
actions of goalkeepers,
goalkeepers of different
ages, test results, long-
distance foot kick.

ABSTRACT

This article presents the identification of methods used to increase the effectiveness of the technical and tactical actions of young goalkeepers in the training process and their introduction into the process of dealing. It also consists in determining the effectiveness of the tests used in increasing technical and tactical actions. The result of pedagogical tests is presented in order to know the effectiveness of the impact of the detected results on the game process.

YOSH DARVOZABONLARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TESTLAR ORQALI O'RGANISH

Abdullaev Islam

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

"Sport o'yinlari" kafedrasi assistent o'qituvchisi

e-mail: abdullaev7647@mail.ru. Telefon raqami: +998900955427

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15533979>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 27th May 2025

Online: 28th May 2025

KEYWORDS

Turli yoshdagi
darvozabonlar,
darvozabonlarning texnik-
taktik xarakatlari, test
natijalari, uzoq masofaga
oyoqda zarba berish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yosh darvozabonlarning o'quv-mashg'ulot jarayonida texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirishda foydalaniladigan usullarni aniqlash va ularni shug'ullanish jarayoniga joriy etish keltirilgan. Bundan tashqari texnik-taktik harakatlarni oshirishdagi foydalaniladigan testlarni samaradorligini aniqlashdan iborat. Aniqlangan natijalarni o'yin jarayoniga ta'sirini samaradorligini bilish maqsadida pedagogik testlar natijasi keltirilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi: Darvozabon chaqqon, yengil, sakrovchan, egiluvchan, yaxshi boshlang'ich tezlikka, akrobatik harakatlar-u, maydoni yaxshi ko'ra bilish sifatlarga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari hozirgi kunda darvozabon baland bo'yli, jismonan baquvvat bo'lishi shart. Texnik ko'rsatkichlarga keladigan bo'lsak, darvozabon o'zining ixtisosligiga xos bo'lgan sifatlardan tashqari maydon o'yinchilari kabi oyoqda o'ynash texnikasining barcha turlarini egallagan bulishi kerak. Bu ayniqsa o'zining jamoadoshi oyog'i bilan uzatgan to'pni qo'li bilan ushlashi taqiqlangan yangi qoidani joriy etilishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Darvozabonlarning o'ziga xos sof ixtisoslashgan bir joyda turgan xolda sakragan, tashlangan



holda qo'l bilan bajariladigan o'nlab harakatlari mavjud. Taktik harakati haqida ham xuddi shunday usullarni aytish mumkin.

Xar bir mashg'ulotlarida bunga aloxida e'tibor berish kerak. Iloji boricha masterlar jamoasida va ayniqsa yosh o'smirlar jamoasida darvozabonlarni tayyorlaydigan maxsus murabbiylarning bo'lishi shart. Agar, bu murabbiylar o'tmishda darvozabon bo'lgan bulsalar yanada maqsadga muvofiq buladi. Osiyoning yetakchi futbol jamoalari (Yaponiya, Janubiy Koreya, BAE) ning mashg'ulotlarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, darvozabonlar mashg'ulotining ko'p qismini maxsus murabbiy diqqat bilan darvozabonlarning jismoniy sifatlari va texnik — taktik harakatlarini mashq qildirish bilan harakatlanadi.

Yuqorida qayd qilinganlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bizning darvozabonlar tayyorlash tizimimizda ko'pgina kamchiliklar mavjud. BO'Smlarda darvozabonlikka tanlashning malakasizligi, BO'SM va yetakchi birinchi va oliy ligalaridagi futbol jamoalarida darvozabonlar tayyorlovchi malakali murabbiy xodimlarning yuqligi, darvozabonlarning bajaradigan vazifalari maydon o'yinchilarinikidan keskin farq qilishiga qaramasdan ular mustaqil o'zlarining jismoniy va texnik- taktik tayyorgarligiga qaratilgan maxsus mashg'ulotlarini alohida o'tkazmasliklari. Darvozabonlar tayyorlash uchun maxsus ma'ruqlar keltirilgan hamda ularning sport faoliyatida uchraydigan vaziyatlar tug'risidagi adabiyotlarning yetarli emasligi.

Futbol mutaxassislari va futbol murabbiylarining fikrlaricha, mag'lubiyatlarimizni sababi ham, bu yosh darvozabonlarning jismonan, texnik va taktiksi ancha orqada ekanligi deb ta'kidlashayapti. O'zbekiston futbol mutaxassislari va yetakchi murabbiylarining fikricha, bizning yosh darvozabonlarning zarur natijalarga erisha olmasliklari, ularning jismoniy, texnik – taktik tayyorgarliklari maromiga yetkazilmaganligidir. Shuni hisobga olganda murabbiylarimiz va futbolchilarimiz bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun anchagina ishlashlariga to'g'ri keladi.

Zamonaviy futbolda darvozaga xavf solingan paytda darvozabon o'zinig bir necha bor mas'uliyatli his qilishlari shartligi to'g'risida mutaxassislar ta'kidlashgan (1.48). Chunki u bunday daqiqalarda jamoaning oxirgi tayanchi darvozabonlar hisoblanadi. Ammo, yosh darvozabonlarni mahoratni nafaqat bir musobaqa siklida, balki bir o'yin davomida takomillashtirish mumkin emas. Sha sababdan yosh darvozabonlarni yuksak texnik-taktik tayyorgarliklarini oshirishdi, ayni kungacha yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan ilg'or tajribalar va tadqiqotlar natijalari hech qanday shubha uyg'otmaydi. Lekin, futbolchilarga texnik-taktik tayyorgarlik masalasi ilmiy predmet sifatida o'rganishda ayrim masalalarga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Futbolda yosh darvozabonlarning texnik tayyorgarligi jarayoni faoliyat sifatida taqdim etiladi, uning samaradorligi sportchilarning raqobatbardosh faoliyati natijalarida ifodalanadi. Sportni takomillashtirish bosqichida futbolda yosh darvozabonlarning texnik tayyorgarligi umuman mashg'ulot jarayoni tizimidagi muhim tarkibiy qismlardan biridir. Shubhasiz, darvozabonlarni tayyorlashda qancha omillar hisobga olinsa, ularning taktik va texnik harakatlarining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi, bu asosan o'yin tizimlarning faoliyati bilan bog'liq [2:72]. Ushbu muammoning jihatlari ko'rib chiqilgan va so'nggi tadqiqotlar va nashrlar tahlil qilingan.



Tadqiqot ishining maqsadi: Yosh darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligini samaradorligini oshiruvchi testlarni tanlash va ularning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot ishining vazifalari: Tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- musobaqa sharoitda yosh darvozabonlarning texnik-taktik harakatlarini soni va samaradorligini tahlil qilish;

- yosh darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligini test me'yorlari orqali aniqlash;

- yosh darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligini oshiruvchi samarali usullarini tanlab olish va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot usullari va tashkil etilishi: Ishimizda quyidagi usullardan foydalanildi. Maxsus adabiyotlarni taxlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, matematik- statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Biz tomonimizdan turli yoshdagi darvozabonlarning maxsus tayyorgarligini aniqlash maqsadida test me'yorlarini tanlab oldik. Bu testlarini ko'rsatkichlari bo'yicha uch martadan qabul qilgan holada o'rtacha (X) hamda standart og'ishini (δ) qayd etib oldik. Ya'ni, uzoq masofaga oyoqda zarba berish (1-test) uch marta, o'tirib oyoqlarni keng yoygan holda to'pni ilib olish (2-test) uch marta, darvozabonning maxsus sakrash qobiliyati (3-test), tashlanib to'pni ushlash (4-test) ikki marta, uzoq masofaga oyoqda qo'ldan tashlab zarba berish (5-test) uch marta, uzoq masofaga qo'lda tashlab berish (6-test) uch marta testlarni qabul qilib oldik.

Dastlabki 1-testda darvozabonlarning uzoq masofaga oshirib berishlarida 11 yosh darvozabon tadqiqotdan oldin $15,00 \pm 2,00$, so'ng $15,67 \pm 1,15$ natijalarni qayd etgan bo'lsak, o'sishi darajasi $R \leq 0,05$ (4.46) qayd etdik (1-jadval). 12 yoshdagi dastlab $17,67 \pm 2,08$, keyin $18,67 \pm 0,58$, 13 yoshdagi dastlab $22,33 \pm 2,52$, keyin $23,33 \pm 1,15$, 14 yoshdagi dastlab $31,33 \pm 1,53$, keyin $32,67 \pm 0,58$, 15 yoshdagi dastlab $34,67 \pm 2,52$, keyin $36,00 \pm 1,00$, 16 yoshdagi dastlab $37,33 \pm 2,08$, keyin $38,67 \pm 0,58$ tashkil etgan. Bizni ularning tadqiqotdan oldingi va keyingi natijalarini o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar e'tiborimizni tortdi. Bu natijalar 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, barcha yoshda 1-test natijalarida o'sish kuzatildi ($R \leq 0,05$). Natijalarga to'liq to'xtalsak, 12 yoshdagi 5.65, 13 yoshdagi 4.28, 14 yoshdagi 4.27, 15 yoshdagi 3.83, 16 yoshdagi 3.58 qayd etganlar. Ya'ni, ma'lumotlardan biz ularning natijalari ijobiy tomonga o'zgarganligini aniqladik. Bu natijalar barcha test me'yorlarni tahlil qilishda kuzatildi.

Nazorat guruhidagi natijalariga keladigan bo'lsak, tadqiqotdan oldingi va keyingi natijalarda o'zgarishlar kuzatilmadi (2-jadval). Ya'ni, barcha yoshdagi (11-yoshdan, 16-yoshgacha) 1-test natijalarida o'zgarishlar kuzatilmadi ($R \geq 0,05$). Bu darvozabonlarning Bolalar o'smirlar sport maktabining rejasi asosida mashg'ulotlarni olib borishgan.

Bizning e'tiborimizni tajriba guruhning kursatkichlariga qaratdik, test me'yorlarida 2-test o'tirib oyoqlarni keng yoygan holda to'pni ilib olish (3-jadval), 3-test darvozabonning maxsus sakrash qobiliyati (5-jadval), 4-test tashlanib to'pni ushlash (7-jadval), 5-test uzoq masofaga oyoqda qo'ldan tashlab zarba berish (9-jadval), 6-test uzoq masofaga qo'lda tashlab berish (11-jadval) harakatlari o'rganildi. Natijalarni tahlil qilishda shuni aniqladikki, ularning dastlabki olingan natijalari, keyingi tadqiqotdan olingan natijalarda o'zgarishlar kuzatildi. Bu kuzatishlar barcha testlarda kuzatildi.



Nazorat guruhining ko'rsatkichlariga e'tibor qaratdik, test me'yorlarida 1-test uzoq masofaga oyoqda zarba berish (2-jadval), 2-test o'tirib oyoqlarni keng yoygan holda to'pni ilib olish (4-jadval), 3-test darvozabonning maxsus sakrash qobiliyati (6-jadval), 4-test tashlab to'pni ushlash (8-jadval), 5-test uzoq masofaga oyoqda qo'ldan tashlab zarba berish (10-jadval), 6-test uzoq masofaga qo'lda tashlab berish (12-jadval) harakatlari o'rganildi. Natijalarni tahlil qilishda shuni aniqladikki, ularning dastlabki olingan natijalari, keyingi tadqiqotdan keyin olingan natijalarda o'zgarishlar ko'z atilmasligi, ularning o'zlari tomonida tuzilgan rejalari asosidagi dastur eskirganligidan dalolat beradi.

Bu natijalar 13-jadvalda keltirilgan bo'lib, barcha yoshda 1-test natijalarida tajriba guruhining natijalarga qarganda o'sish 16 yoshdagi darvozabonda faqatgina o'zgarish kuzatildi ($R \geq 0.05$). Natijalarga to'liq to'xtalsak, 11 yoshdagi 2.22, 12 yoshdagi 1.83, 13 yoshdagi 1.45, 14 yoshdagi 2.08, 15 yoshdagi 0.98, 16 yoshdagi 3.64 qayd etganlar. Ya'ni, ma'lumotlardan biz ularning natijalari ijobiy tomonga o'zgarganligini aniqladik. Nazorat guruhining natijalarining barchasida deyarli o'zgarishlar kuzatilmadi.

1-jadval.

Tajriba guruhining natijalarini o'zgarish dinamikasi

	Yoshi	Nat ija	Testlar					
			1	2	3	4	5	6
1.	10-11 yosh	t_{sty}	4,46	4,34	64	39	72	18
		P	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$
2.	11-12 yosh	t_{sty}	5,65	71	51	31	26	09
		P	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$
3.	12-13 yosh	t_{sty}	4,28	3,21	4,39	4,08	4,41	4,88
		P	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$
4.	13-14 yosh	t_{sty}	4,27	3,74	4,32	4,41	3,68	3,86
		P	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$
5.	14-15 yosh	t_{sty}	3,83	3,76	4,41	4,62	4,14	4,34
		P	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$
6.	15-16 yosh	t_{sty}	3,58	4,07	4,74	3,61	4,79	7,4
		P	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$	$\leq 0,05$



Nazorat guruhining natijalarini o'zgarish dinamikasi

	Yoshi	Nat ija	Testlar					
			1	2	3	4	5	6
1.	10-11 yosh	t _{styu}	2, 22	0, 91	0, 22	1, 78	1, 94	3, 64
		P	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≤ 0.05
2.	11-12 yosh	t _{styu}	1, 83	2, 46	0, 67	0, 11	1, 73	3, 01
		P	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05
3.	12-13 yosh	t _{styu}	1, 45	0, 21	0, 87	1, 79	1, 33	2, 35
		P	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05
4.	13-14 yosh	t _{styu}	2, 08	1, 87	0, 11	0, 83	2, 02	1, 97
		P	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05

5.	14-15 yosh	t _{styu}	0, 98	0, 91	0, 19	0, 91	0, 91	1, 52
		R	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05
6.	15-16 yosh	t _{styu}	3, 67	1, 99	0, 22	0, 38	0, 84	1, 19
		P	≤ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05	≥ 0.05

Xulosa: Tadqiqotimizdagi yosh darvozabonlarning dastlabki tayyorgarligi ularning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Biz bunday qobiliyatlarning ikkita guruhini aniqladik: umumiy va maxsus. Umumiy koordinatsion qobiliyatini texnik-taktik harakatlarini birga rivojlantirish uchun har qanday o'quv mashqlaridan foydalanilgan bo'lib, uning davomida mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. Shu bilan birga, ushbu majmuaning tuzilishi turli mashqlarda turlicha edi. Olingan natijalardan musobaqa sharoitida darvozabonlarning olingan texnik harakatlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu texnik-taktik harakatlarni amalga oshirishda, jismoniy tayyorgarligi, ayniqsakoordinatsion qobiliyatining ahamiyati kattaligini bildiradi. Ayniqsa bu darvozabonlarning ko'p uchraydigan to'pni chiziqda qaytarishda. Havodagi to'pga chiqishda, hujumlarni boshlab berishdagi, oyoqda to'pni tashlab berish va boshqa texnik harakatlar bajarishda katta ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Amaliy tavsiyalar: Ko'pgina mashg'ulotlarda darvozabonlar o'zi alohida mashqlarni bajarishadi. Lekin o'yinchilar bilan ham mashg'ulotlarda qatnashish o'yin vaziyatlarga yaqin bo'lgan mashqlarni ko'proq qo'llash katta samara berishi mumkin: darvozabonlar o'yinchilar va murabbiylar bilan bajaradigan mashqlar ahamiyatlidir.

Mashg'ulot bo'ladigan kunga ham aqliy, ham jismoniy tayyorgarlikdan koordinatsion qobiliyat texnik harakatlarni bajarishda kerakligi uchun murabbiylar e'tibor berishlari kerak. Bundan tashqari aqliy tayyorgarlik avvalgi mashqlar mashg'ulotini o'zlashtirib olishdan iborat. Darvozabon nimani to'la-to'kis o'zlashtirib oladi-yu, nimani o'zlashtirib olmasligi to'g'risida murabbiylar to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.



References:

1. Artiqov.A.A. Futbolchilarning texnik usullari aniqligini takomillashtirishga yo`naltirilgan maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligini taxlili. Fan-sportga, 48-bet. 2022 y.
2. Shaymardanov.D.B. "Futbol nazaryasi va uslubiyati" (taktik harakatlar) O'quv qo'llanma, Toshkent "O`zkitobsavdonashiryoti" NMIU 2022 y.